

**Buxoro viloyat G'ijduvon tuman boshlan g'ich ta'lim
metodisti R.Halimovaning "Darslarda o'quvchilarni
baholash metodikasi" mavzusida yozgan**

Metodik tavsiyasi



Maqsad:

- o 1. Darslarda o'quvchilarni baholashning adolatli ,samarali usulini qo'llash.
- o 1. O'qituvchi va o'quvchilar vaqtini tejash.
- o 3. Ta'lim samaradorligini oshirish.
- o 4. Baholash me'zoniga o'zgartirish kiritish

Baho qo'yish me'zoni

Boshlan g'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayoni juda qiyin. O'qituvchi o'quvchiga past baho qo'ysa, o'quvchining ko'ngli ranjiydi. O'qituvchi baland baho qo'ysa, o'qituvchi baholash me'yorini bilmaydi degan ayblov qo'yiladi.

Qilinadigan vazifa	Baho qo'yish me'zoni
Fikrlar	Past baho qo'yilsa: O'quvchi tushkunlikka tushadi Yuqori baho qo'yilsa: O'qituvchi baholash me'yorini bilmaydi.
Salbiy tomoni	O'qituvchi chorasiz qoladi

O'quvchi baholanmadi

O'qituvchi o'quvchini shugun baholamadi. O'quvchi topshiriqni bajardi ,ammo baho olmadi. Bundan xafa bo'ladi chunki o'qituvchisi uning qilgan ishini taqdirlamadi. Uyga borganida ota-onasidan tanbeh eshtadi: ” O'qituvching so'ramadimi? Nega baho olmading?”

Qilinadigan vazifa	O'quvchi baholanmadi
Fikrlar	O'quvchi: Mehnatimga yarasha taqdirlanmadim. Tarbiyachi: O'qituvchi e'tiborsiz.
Salbiy tomoni	O'quvchi bilimni o'zi uchun emas, faqatgina o'qituvchi qo'yadigan bahosi uchun tinglaydi.

O‘qituvchi 10 ta o‘quvchini baholadi

Dars jarayonida o‘qituvchi yangi mavzuni o‘tishi, hamda kamida o‘nta o‘quvchini baholashi lozim. O‘quvchilar olgan baholarni kundalik daftariga hamda sinf jurnaliga qayd etishi lozim. O‘quvchi kundalik daftarini topadi, keltiradi va baho oladi. O‘qituvchi shu bahoni jurnalga qo‘yadi. O‘qituvchining 15 daqiqa vaqti sarflanadi. Ammo darsning xaritasida “baholash “ uchun 2 daqiqa vaqt ajratilgan. Natijada O‘qituvchi darsni yakunlay olmaydi.

Qilinadigan vazifa	O‘quvchilarning 10 tasi baholandi
Fikrlar	<p>O‘quvchi: Yangi mavzu tezroq tugasin tezroq baho olay.</p> <p>O‘qituvchi : O‘quvchilardan so‘rab baholasam, bahoni jurnal, kundalikka qo‘yib bersam, yangi mavzuni mukammal tushuntirishga ulguramanmi ?</p>
Salbiy tomoni	45 daqiqa o‘qituvchiga yetishmaydi. Natijada o‘qituvchi darsni mukammal tushuntirishga, yakunlashga ulgurmaydi

Baholash me‘zoniga o‘zgartirish kiritish

“Tarbiyachi nazorati” daftari

O‘quvchilarga “Tarbiyachi nazorati” daftari tashkil etilsin. Unda DTS asosida qo‘yilishi lozim bo‘lgan baholar o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilsin. Masalan: O‘qish fanidan

50-55 so‘z – 5 baho

40-45 so‘z – 4 baho

30-35 so‘z -3 baho

Ona tilidan diktant, matn ,yozish.

Matematikadan mavzuga oid misollar.

Har bir tarbiyachi farzandini nazorat qiladi.

Qilinadigan vazifa	O'quvchilarga "Tarbiyachi nazorati" daftari tashkil etadi.
Fikrlar	Tarbiyachi : Farzandimga ko'broq e'ribor qaratishim kerak.
Ijobiy tomoni	Ota -ona farzandining qanday bahoda o'qishini bilib oladi. O'qituvchini ayblay olmaydi.

Baho ma'lum vaqtda bir marotaba qo'yiladi.

O'quvchilarga baho har kuni emas, ma'lum vaqtda (hatada, yangi mavzudan keyin..) bir marotaba to'liq hammaga yangi o'tilgan mavzu yuzasitan topshiriq berilib, o'quvchiga baho qo'yilsin . Olgan baholariga qarab sinfdagi o'rni belgilanib ,ota-onasiga yuborilsin. Farsandi bir necha (3;5) marotaba oxirgi 3ta o'rinni egallagan ota-onalar " jazo" (Sinf kutubxonasiga kitob olib berish. Farsandiga 10 ta she'r o'rgatish. ..)qo'yilsin.

Qilinadigan vazifa	O‘quvchilarni ma’lum vaqtda bir marotaba baholash
Fikrlar	Tarbiyachi :Bolam sen o‘qituvchi uchun emas, baho uchun emas, o‘z o‘rning uchun bilim olib o‘rganishing kerak
Ijobiy tomoni	O‘quvchi kelajakda o‘z o‘rni yuqori bo‘lishi uchun o‘qishi lozimligini tushuunadi.

Yangi mavzu jarayonida o‘quvchi baholanmaydi.

Yangi mavzu jarayonida o‘quvchi baholanmasin. O‘qituvchi mavzuni turli yo‘llar bilan mukammal darajada o‘quvchiga yergazib bersin. O‘quvchi yangi mavzuni yaxshi tushunsa har doim shu mavzuni aytib bera oladi. Agarda yuzaki tushunsa , ayni paytda ,ya’ni o‘sha darsda javob beradi. Keyin xotirasidan chiqib ketadi. Shu sababli o‘quvchi yangi mavzuni puxta egallasin.

Dars davomida lozim topilsa o‘quvchilarga turli xildagi “rag‘bat” kartochkalari berilsin.

Qilinadigan vazifa	O‘quvchilar bor diqqati bilan mavzuni tushunadi
Fikrlar	O‘quvchi: Mavzuni o‘zlashtirib borsa keyingi darslarda bo‘ladigan sinovdan yuqori o‘rinni olishini, kelajakda ham turli xil ra g‘batlar olishini, shuning uchun har bin mavzuni o‘rganishi shartligini tushunadi
Ijobiy tomoni	O‘qituvchining yangi mavzuni tushuntirishiga va darsni vaqtida yakunlashga imkoniyati bo‘ladi.